

QXM fakulteti talabalari “Samarqand yoshlar forumi-2021” da ishtirok etishdi

2021 yil “Yoshlarni qo‘llab quvvatlash va aholi salomatligini mustaxkamlash yili” hamda Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarda Xarakatlar strategiyasining muxim yo‘nalishlaridan biri, ijtimoiy soxani rivojlantirishga aloxida e‘tibor berilmoqda.



Shulardan kelib chiqqan xolda, joriy yilning 13-14 martida Samarqand shaxrida tashkil etilgan “Bir manfaat emas, bir maqsad sari” shiori ostida o‘tkazilagan “Samarqand yoshlar forumi-2021” forumida “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakultetining iqtidorli talabalari guruxi faol ishtirok etishdi.



Turli nominatsiyalar bo‘yicha qatnashgan iqtidorli talabalarimiz g‘oliblikni qo‘lga kiritishib diplom va estalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Jumladan, “THE BEST DELEGATE” nominatsiyasi bo‘yicha 2-kurs talabasi Xo‘jamqulov Javlonbek fahrli 1 darajali diplom bilan taqdirlandi.



Bundan tashqari mahoratli spekerlar tomonidan talabalarni qiziqtirgan yo‘nalishlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini bo‘yicha fikr almashdilar. Tashkil etilgan forumning 2-kuni “Ko‘xna va boqiy Samarqand” bo‘ylab sayohat uyushtirildi.



QXM fakulteti YoBIB dekan muovini K.Usmonov